

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Filologiya va ijtimoiy fanlar” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Askiya va qiziqchilik san’atida improvizatsiya va so‘z o‘yinini o‘rgatishga qaratilgan sun’iy intellekt asosidagi ta’lim platformasini yaratish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - askiya va qiziqchilik san’atida improvizatsiya, tezkor javob berish, yumor va so‘z o‘yini mexanizmlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi; - yetakchi askiyachilar va qiziqchilar ishtirokida improvizatsiya jarayonining kognitiv va lingvistik modellari ishlab chiqiladi; - askiya va qiziqchilik san’atini o‘rgatishga mo‘ljallangan sun’iy intellekt asosidagi interaktiv ta’lim algoritmlari yaratiladi; - yosh ijrochilar uchun improvizatsiyani baholash va rivojlantirishga xizmat qiluvchi raqamli platforma (MVP) ishlab chiqiladi; Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar Madaniyat vazirligi tizimidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Madaniyat vazirligining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Madaniyat vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.